

**SOHIBQIRONNING HARBIY YURISHLARIDA UMARSHAYX MIRZO
BOSHCHILIGIDAGI VODIY QO'SHININING FAOLIYATI**

Begimqulova Laylo Mashrabovna

Farg'ona davlat universiteti Tarix fakulteti O'zbekiston tarix kafedrası v.b. dotsenti

e-mail: beginqulova@internet.ru

Annotatsiya: Sohibqironning harbiy yurishlarida Umarshayx boshchiligidagi vodiy qo'shinining faoliyati, amirzoda Umarshayx mirzo boshchiligidagi qo'shin Temuriylar lashkarining Sirdaryodan o'tishi uchun ko'prik bunyod etganligi. Xorazm yurishi vaqtida Amir Temurga qarshi kuyovi Muhammad Mirka isyon ko'targanda, shaxsan Umarshayx mirzoning o'zi isyonni bostirishda jonbozlik ko'rsatganligi, mamlakat sarhadlarida tinchlik o'rnatganligi shuningdek, muddatli harbiy yurishlari tarixiy manbalar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Amir Temur, Umarshayx mirzo, Mironshoh mirzo, Muhammad Mirka, Xojibek Jonikurboniy, To'xtamishxon, Xizr Xo'jaxon, Anqa To'ra, Movarounnahr, Oltin O'rda, Xorazm, Mo'g'uliston, Dashti Qipchoq, Xuroson, Fors, Yettisuv va Janubiy Qozog'iston, Samarqand, Farg'ona vodiysi.

**ACTIVITIES OF THE VALLEY ARMY UNDER THE LEADERSHIP OF UMAR
SHEIKH MIRZA DURING THE MILITARY MARCH OF THE HOST**

Begimkulova Laylo Mashrabovna

Acting Associate Professor at the Department of the History of Uzbekistan,
the Faculty of History, FSU

e-mail: beginqulova@internet.ru

Abstract: The activities of the valley army led by Umar Sheikh during the Sahibkiran military campaigns, the army led by Umar Sheikh Mirza built a bridge for the Timurid army to cross the Syr Darya. During the Khorezm campaign, when his son-in-law Muhammad Mirka rebelled against Amir Temur, Umar Sheikh Mirza personally showed courage in suppressing the rebellion, establishing peace on the borders of the country, and his temporary military campaigns have been analysed on the basis of historical sources. .

Keywords: Amir Temur, Umar Sheikh Mirza, Mironshah Mirza, Muhammad Mirka, Khojibek Jonikurbani, Tokhtamysh Khan, Khizr Khoja Khan, Anka Tora, Movarunnahr, Golden Horde, Khorezm, Mongolia, Dashti Kipchak, Khorasan, Persia, Semirechiye and South Kazakhstan, Samarkand, the Ferghana Valley.

**ДЕЙСТВИЯ АРМИИ ДОЛИНЫ ПОД КОМАНДОВАНИЕМ УМАРА ШЕЙХА
МИРЗЫ ВО ВРЕМЯ ВОЕННЫХ КАМПАНИЙ АМИРА ТЕМУРА**

Аннотация: Настоящая статья посвящена деятельности Умар Шейха Мирзы — сына Амира Темура — во время военных походов Сахибкирана. Рассматриваются следующие аспекты: строительство моста через Сырдарью для переправы тимуридской армии во время похода против Тохтамыш хана, личное участие Умар Шейха Мирзы в подавлении восстания своего зятя Мухаммада Мирзы во время Хорезмского похода, установление мира на границах государства в ходе временных военных походов Умар Шейха Мирзы. Анализ исторических источников позволяет выявить значимость роли Умар Шейха Мирзы в укреплении и расширении империи Амира Темура.

Ключевые слова: Амир Темур, Умар Шейх Мирза, Мироншах Мирза, Мухаммад Мирка, Ходжибек Джоникурбани, Тохтамыш хан, Хизр Ходжа хан, Анка Тора, Моваруннахр, Золотая Орда, Хорезм, Монголия, Дашти Кипчак, Хорасан, Персия, Семиречье и Южный Казахстан, Самарканд, Ферганская долина

Amir Temur Oltin O'rda, Xorazm va Mo'g'ulistonni birma-bir tor-mor keltirishga qaror qildi. 1388-yili Xorazmga qarshi yurish boshladi. Amir Temur poytaxt mudofaasini va butun Movarounnahr sarhadlarini himoya qilishni bu safar Umarshayx mirzoning o'ziga topshiradi. Xorazm yurishi vaqtida Amir Temurga qarshi kuyovi Muhammad Mirka isyon ko'taradi. Shaxsan Umarshayx mirzoning o'zi isyonni bostirishda jonbozlik ko'rsatib, mamlakat sarhadlarida tinchlik o'rnatadi. Amir Temur Xorazm yurishidan qaytib kelganidan keyingina Umarshayx mirzoga Farg'ona vodiysiga qaytishga ruxsat beradi.

1388-yilning dekabrda To'xtamishxon yana o'z qo'shinlari bilan Movarounnahr hududiga bostirib kiradi. Qo'shinning ilg'or qismlari Sirdaryo cho'llariga qadar yetib keladi. Bu vaqtda Amir Temur qo'shinga dam berish uchun o'z viloyatlariga tarqatib yuborgan, uning huzurida to'rt ming kishilik lashkar bor edi, xolos. Buning ustiga juda qalin qor yog'ib, aholiga va hayvonlarga katta talafot yetadi. Lekin Amir Temur qor tepib yo'l ochib, dushman ustiga yurish qilish haqida farmon beradi va o'zi qo'shinni boshlab boradi. Umarshayx mirzo ham vodiy qo'shini bilan Sirdaryoning janubiy qirg'oqlari bo'ylab yurib, Samarqand va Jizzax viloyati chegaralarida asosiy lashkarga borib qo'shiladi¹.

Muiniddin Natanziy shu hududdagi Zarnuq mavzeyida bo'lib o'tgan jang va ushbu jangdagi Sohibqironning harbiy hiylasi va Umarshayx boshchiligidagi vodiy qo'shinining faoliyati xususida qiziqarli ma'lumot beradi: "Iqbol ko'magi va yaxshi tasodif tufayli amirzoda Umarshayx ham ming kishi bilan Sulton Sohibqiron yoniga yetib keldi. Sultoni g'oziy uning muborak poyqadamini kunba-kun ziyoda bo'luvchi davlatining natijasi, deb bilib, hayallamasdan nag'ora va burg'u sadolari bilan suron ko'tarishni va otlarning jilovini qo'yib yuborib, dushman ustiga tashlanishni buyurdi"². Umarshayx mirzoning atiga ming kishi bilan kelganligi qalin qor yoqqan bir sharoitda asosiy kuchlarning yurish tezligiga qaramay, o'zi ilg'or qism bilan shoshilinch kelganligidan dalolat beradi. 1389-yilning mart oyida Umarshayx mirzo boshchiligidagi qo'shin Temuriylar lashkarining Sirdaryodan o'tishi uchun ko'prik bunyod etadi. Movarounnahr lashkarining Sirdaryodan o'tganini eshitgan Dashti Qipchoq lashkari o'z yurtiga qaytib ketadi. Shundan so'ng kengash o'tkazilib, Dashti Qipchoq tomon yurishni davom ettirish yoki To'xtamishxonning yana bir ittifoqchisi Mo'g'uliston xoni Xizr Xo'jaxon va uning amiri Anqa To'rani tor-mor keltirish zarurligi to'g'risida maslahat qilinadi.

Qurultoy arafasida Mironshoh mirzo Xurosonga qaytariladi. Buning bir necha sabablari bor edi. Birinchidan, deb yozadi Bahriddin Usmonov bu vaqtda Amir Temurning Movarounnahrda bandligidan foydalangan Muzaffariylar sulolasining vakillari Fors viloyatida yana o'z mavqelarini mustahkamlayotgandi. Ikkinchidan, 1388-yilda Tusda Xojibek Joniqurboniy boshchiligidagi yuz bergan isyon bostirilgan bo'lsa-da, Xurosonda vaziyat to'la barqaror emasdi. Shu sababli kengashda Amir Temur o'g'illaridan faqat Umarshayx mirzo ishtirok etadi. Asosiy raqib To'xtamishxonga qarshi yurish boshlashdan avval uning ikkinchi qanoti Mo'g'ulistonni ham tor-

¹ Usmonov B. Farg'ona vodiysi Amir Temur va Temuriylar davrida. – Farg'ona: Farg'ona, 2019. – B.109.

² Natanziy. Muntahab ut-tavorixi Muiniy. – B.146.

mor keltirishi zarur edi. Bu masala yana shuning uchun ham muhim ediki, uzoq davom etadigan Dashti Qipchoq yurishini boshlashdan avval Farg'ona vodiysi va Toshkent vohasi xavfsizligini to'liq ta'minlash talab etilardi. Buning uchun esa aynan shu hududga qo'shni bo'lgan Mo'g'ulistonni tor-mor keltirish, ularning bu hududlarga bosqin uyushtirish imkoniyatlarini yo'qqa chiqarish kerak edi. Umarshayx mirzo Farg'ona hokimi sifatida, qolaversa, eng maqbul taklif sifatida Mo'g'uliston yurishini qo'llab-quvvatlagan³.

Shomiy va Yazdiy kengashda kim qanday fikr bildirganligi haqida to'xtalib o'tmagan. Lekin Muiniddin Natanziy Umarshayx mirzo Mo'g'ulistonga yurish qilish tarafdori bo'lganligini qayd etib o'tgan. Amir Temur esa To'xtamishxon lashkari tomonidan Movarounnahrda amalga oshirilgan hunrezliklar uchun tezroq o'ch olish maqsadida Dashti Qipchoqqa yurish qilishga shoshilar edi. "Ammo Hazrat Sohibqironning xayoli bor edikim, deb yozadi Sharafuddin Ali Yazdiy, To'xtamishxonning keynida borg'ay. Ammo beklar barcha ittifoq qilib, yukunib dedilarkim: "Davlatqa loyiq tururkim, avval Xizr Xoja O'g'lonkim, Tug'luq Temurxonning o'g'li turur va mo'g'ul qavmining xoni turur va bir ulug' dushmanimiz ul turur, aning boshig'a borali va andin ko'ngul jam etib, farog'at bilan o'zga dushman To'xtamishxon ustiga borali". Bu so'zni va bu kengashni hazrat Sohibqiron qabul qildi va andin qaytdi"⁴. Ushbu yurishda Umarshayx mirzo va uning boshchiligidagi Farg'ona qo'shini ham faol ishtirok etib, bir necha bor o'z qahramonliklari bilan Amir Temur e'tirofini qozonadilar. Ulardan biri to'g'risida so'z yuritir ekan, Sharafuddin Ali Yazdiy Umarshayx mirzoni 50 kishi bilan dushmanning 800 kishilik guruhini tor-mor keltirganligini qayd etib, bu qahramonlikni "Shahzoda ul kun andoq ish qildikim, ko'k va er anga ofarin o'qudilar", deb tariflagan edi. Amir Temur ushbu yurishdan qaytarkan, Mo'g'ulistonning janubiy qismi, ya'ni Sharqiy Turkistondagi dushmanlarni tor-mor keltirishni Umarshayx mirzoga topshiradi. Umarshayx mirzo dastlab Ko'plakbek boshchiligidagi mo'g'ul qo'shinini tor-mor keltirib, Kuran va Uchfarmon mavzellarini egallaydi. Shundan so'ng g'olib lashkar ikkinchi bor Koshg'arga etib kelib, uni zabt etadi. Bu yurish orqali Farg'ona vodiysiga sharqiy tomondan qo'shnisi bo'lgan ko'chmanchi mo'g'ullarning kuch-qudratiga yana bir bor zarba beriladi. Sharafuddin Ali Yazdiyning ma'lumotiga ko'ra, Umarshayx mirzo katta o'ljalar bilan Koshg'ardan o'z viloyati Farg'ona vodiysiga qaytib ketgan. Lekin Nizomiddin Shomiy uni Amir Temur boshchiligidagi lashkarga borib qo'shilganligini ta'kidlab, quyidagilarni bayon qiladi: "Amir Sohibqiron kishi yuborib, amirzoda Umarshayx Bahodirni to'xtamasdan Qahlag'a tomonga jo'nashga buyurdi. Amirzoda farmonga binoan darhol o'tlanib, Qahlag'adan o'tdi. Yo'lda dushmanlardan bo'lmish Kublokka duch kelib, uni tutib halok etdi va uning viloyatlarini g'orat qildi. Uchparmon va Kuzan mavzeyidan ko'chib o'tib, u yerdan Koshg'arga kirdi va O'zgandga borib, g'alaba yor lashkarga qo'shildi"⁵.

Bu yurish to'g'risida Muiniddin Natanziy ma'lumot bermagan. Har ikki "Zafarnoma"dagi voqealar bayoni esa Umarshayx mirzo o'z qo'shinlari bilan Koshg'ardan so'ng Yassi dovoni orqali vodiyya qaytganligini, Amir Temur esa Umarshayx mirzoni Sharqiy Turkiston zabti uchun

³ Usmonov B. Farg'ona vodiysi Amir Temur va Temuriylar davrida. – Farg'ona: Farg'ona, 2019. – B.110.

⁴ Yazdiy. Zafarnoma. – B.123.

⁵ Shomiy. Zafarnoma. – B.156.

jo'natgach, Yettisuv va Janubiy Qozog'iston orqali Samarqandga qaytganligini ko'rsatadi deb tahlil qiladi Bahridin Usmonov⁶.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Шарофиддин Али Яздий. «Зафарнома». Т., «Меҳнат», 1994 йи.
2. Shomiy. Zafarnoma. – B.143-144
3. Ravshanov P. Amir Temur sulolasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013.
4. Natanziy. Muntahab ut-tavorixi Muiniy. – B.12
5. Shomiy Zafarnoma. – B.82
6. Usmonov B. Farg'ona vodiysi Amir Temur va Temuriylar davrida. – Farg'ona: Farg'ona, 2019. – B.112
7. Begimqulova, L. (2020). STUDY OF THE POLITICAL PROCESSES IN TRANSOXIANA IN 1405-1409 IN THE WORKS O
8. Begimqulova, L. (2020). STUDY OF THE POLITICAL PROCESSES THAT TOOK PLACE IN TRANSOXIANA IN 1405-1409 IN FRENCH HISTORIOGRAPHY. In *WORLD SCIENCE: PROBLEMS AND INNOVATIONS* (pp. 76-78). F ENGLISH HISTORIANS. In *INNOVATIONNOE RAZVITIE: POTENTIAL NAUKI I SOVREMENNOGO OBRAZOVANIYa* (pp. 65-67).
9. Begimkulova, L. M. (2020). Amir Tumur vafotining dastlabki kunlaridagi siyosiy jarayonlarda SHayx Nuriddin va SHohmaliklarning tutgan o'rni. *Vzglyad v Proshloe*, 3(11).
10. Begimqulova, L. (2022). Amir Temur vafotidan keyin Movarounnahrda yuz bergan tarixiy voqiyalarga turkiyalik temurshunoslar qarashlari. *Barqarorlik va yetakchili tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali*, 2(10), 223-225.
11. Begimqulova, L. (2022). Relations Between the Children of the Temuri Queens After the Death of Amir Temur. *International Journal of Formal Education*, 1(10), 127-133.
12. Begimqulova, L. XVasr boshlarida Movarounnahrda kechgan siyosiy voqealarda Saroymlukxonimning tutgan o'rni. *Journal of innvatsinsin in social sciences* 2022. 100-104 betlar.
13. Begimqulova, L. Rui Gonsales De Klavixo About Temurian Princesses. *Modern Journal of Sciences and Humanities*.2022.631-635
14. Begimqulova, L. Temuriylar davriga Rossiya Imperiyasi hamda sovet davri tarixchilarining qarashlari. *FarDU Ilmiy xabarlar*. 2022.739-741-betlar.
15. Begimqulova, L. Temuriy shahzodalarni harbiy va davlat ishlariga tayyorlashda otaliq amirlarning o'rni. *FarDU Ilmiy xabarlar*. 2022.755-756-betlar.
16. Begimqulova, L. Temuriy shahzodalarning taxt uchun keskin harakatlari (1405-1406 yillar).*FarDU Ilmiy xabarlar*. 2022.749-750-betlar.

⁶Usmonov B. Farg'ona vodiysi Amir Temur va Temuriylar davrida. – Farg'ona: Farg'ona, 2019. – B.112.

17. Begimqulova, L. Relations Between the Children of the Temuri Queens After the Death of Amir Temur. International Journal of Formal Education 2022. 127-133 betlar.
18. Begimqulova, L. Study of the history of Amir Temur and the Timurid eraduring the years of independense. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research. 2023. 102-106 betlar.
19. Begimqulova, L. Adminstrative structure and management procedures of the state of Amir Temur. international bulletin of applied science and technology. 2023. 932-935 betlar.
20. Begimqulova, L. Amir Temur davri tarixini yorituvchi manbalar tahlili. Евразийский журнал технологий и инноваций 2023. 211–215 betlar.
21. Begimqulova Laylo Mashrabovna AMIR TEMUR TARIXIDAGI BUYUK SARKARDALIK FAOLIYATI Journal of Advanced Research and Stability Volume: 03 Issue: 12 | Dec - 2023 ISSN: 2181-2608
22. Begimqulova Laylo STUDY OF AMIR TEMUR'S LIFE AND STATE ACTIVITY. BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT ISSN: 2835-3579"Best Research Methods of Science, Education and Modernity"